



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**THE ROLE OF MODEL BILATERAL INVESTMENT TREATIES (MODEL
BITS) IN THE IMPLEMENTATION OF A SUSTAINABLE INVESTMENT
POLICY**

Ergashboyev Mardonbek Xamidullayevich

Master's student in International Commercial Law,

Tashkent State University of Law

E-mail: mardon706@gmail.com

Abstract

This thesis analyzes the role of model bilateral investment treaties (Model BITs) and their importance in the negotiation and adoption of bilateral treaties. The significance of model BITs in harmonizing investment policy and ensuring a stable environment for investors is illustrated by the examples of the BIT programs in Germany and the USA, countries with extensive practical experience in this area. In the conclusion, the author's personal views are presented regarding the importance and necessity of developing a Model BIT for Uzbekistan.

Keywords: *bilateral investment treaties, model bilateral investment treaties, BIT, Model BIT, investment policy, stable investment climate, arbitration, ICSID.*

Annotatsiya: *Mazkur tezisdan namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimlari (Model BIT)ning ahamiyati, ikki tomonlama bitimlarni muzokara qilish va qabul qilishda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Model BITlarning investitsiya siyosatini garmonizatsiya qilish va investorlar uchun barqaror muhitni ta'minlashdagi o'rni ushbu yo'nalishda katta amaliy tajribaga ega bo'lgan Germaniya va AQSH kabi davlatlar BIT dasturlari misolida yoritiladi. Yakunda O'zbekiston uchun Model BIT ishlab chiqishning ahamiyati va zaruriyati to'g'risida muallifning shaxsiy qarashlari bayon qilinadi.*



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

***Kalit so‘zlar:** ikki tomonlama investitsiya bitimlari, namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimlari, BIT, Model BIT, investitsiya siyosati, barqaror investitsiya muhiti, arbitraj, ICSID.*

Mamlakatga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya oqimlarini ko‘paytirishda investitsiyalarni o‘zaro himoya qilish va rag‘batlantirish bo‘yicha ikki tomonlama bitimlarning (keyingi o‘rinlarda – ikki tomonlama investitsiya bitimlari yoki BIT) ahamiyati beqiyos. Ikki tomonlama investitsiya bitimlari xorijiy investorlarga mamlakatda ular uchun yaratilgan huquqiy kafolatlar va mexanizmlar to‘g‘risida signal beradi va ularni mamlakatga jalb qiladi.

BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasining onlayn axborot bazasi ma’lumotlariga ko‘ra, hozirga qadar davlatlar tomonidan **2 868 ta** ikki tomonlama xalqaro investitsiya shartnomalari hamda **518 ta** investitsiya qoidalariga ega shartnomalar tuzilgan [10] va albatta ushbu tendensiya davom etib kelmoqda. Turli davlatlar ikki tomonlama investitsiya bitimlarini tuzish bo‘yicha muzokaralarga turlicha yondashadi.

O‘tgan asrning **90-yillarida** ikki tomonlama investitsiya bitimlarini tuzish amaliyoti karrasiga tezlashib ketishi ortidan rivojlangan davlatlar birin-ketin **namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimlarini** (Model BIT) ishlab chiqish va xalqaro hamjamiyatga e’lon qilishni boshladilar. Shu kunga qadar kamida **80 ta** davlatlar namunaviy ikki tomonlama bitimlarni qabul qilib, ushbu bitimlar asosida yangi investitsiya bitimlarini tuzish uchun muzokaralar olib bormoqdalar [10].

Dunyo bo‘yicha eng ko‘p ikki tomonlama investitsiya bitimlarini tuzgan – **Xitoy** (126 ta), **Turkiya** (124 ta) va **Germaniya** (120 ta) kabi davlatlarning barchasi o‘zlarining Model BITlariga ega va barcha yangi bitimlarni tuzish bo‘yicha muzokaralarga ushbu namunaviy bitimlar yordamida kirishadilar.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Xo‘sh, yangi bitimlarni ishlab chiqishda Model BITlardan foydalanishning ahamiyati nimada? Nima uchun mazkur yo‘nalishda ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan davlatlar ham yangi investitsiya bitimlarini imzolashda namunaviy bitimlarga tayanadilar?

Davlatlar namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimlarini turli sabablarga ko‘ra ishlab chiqadilar. **Avvalo**, model BITga ega bo‘lish va u asosida investitsiya muzokaralariga kirishish odatda jarayonning **samaradorligini** oshiradi. Namunaviy bitimlar ikkinchi tomon bilan birga matni ishlab chiqish va muzokaralar o‘tkazishga ketadigan xarajatlarini kamaytiradi, chunki bitimni ishlab chiquvchi davlat har bir muzokara uchun yangi matn tayyorlashiga majbur bo‘lmaydi [1, 165]. Germaniya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi BITlar tuzishda faol bo‘lgan mamlakatlar namunaviy BITlardan muvaffaqiyatli ravishda foydalanib, investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha bitimlarning butun boshli tarmog‘ini yaratdilar [2, 2].

Ikkinchidan, namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimlarini ishlab chiqish jarayoni uni tuzayotgan davlatga bitimlarni tuzish bo‘yicha muzokaralarga katta vaqt va resurslar sarflashdan oldin o‘z investitsiya siyosatini aniq shakllantirish imkonini beradi [3, 301]. Muzokara matnini ishlab chiqish hukumatga investitsiyalarni himoya qilish masalasini har tomonlama o‘rganish, manfaatdor davlat organlari va xususiy sektor tashkilotlari bilan maslahatlashish hamda ushbu masala bo‘yicha milliy siyosatni shakllantirish imkonini beradi. Bu, shuningdek, ikki tomonlama investitsiya bitimlarini tuzish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlashga yordam beradi, muzokaralar boshlanishidan oldin bunday muammolarni hal etish imkonini yaratadi hamda maslahatlashuvlar natijasida ishlab chiqilgan namunaviy muzokara matnining mamlakat ichida siyosiy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash yoki buni baholashga xizmat qiladi [4, 24].



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Odatda, davlatning investitsiya siyosatiga mas’ul davlat organi Model BITni ishlab chiqadi va uni boshqa manfaatdor davlat agentliklari va tashkilotlari bilan kelishuvdan o‘tkazadi. Jarayonda tegishli idoralarning takliflari asosida namunaviy BIT qayta ishlanadi va takomiliga yetkaziladi.

Bu jarayon tashqi muzokaralarni boshlashdan oldin butun hukumat miqyosida **konsensusga** erishishni ta’minlashga yordam beradi hamda ushbu model asosida tuzilgan bitimlarni kuchga kiritish uchun hukumat ichida va tashqarisida yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash mavjudligini aniqlashga yordam beradi.

Davlat organlarining mazkur masala yuzasidan aniq pozitsiyasi belgilab olinganidan so‘ng, boshqa manfaatdor tomonlar —biznes vakillari, kasaba uyushmalari qo‘mitalari, fuqarolik jamiyati institutlari, umuman olganda, **keng jamoatchilik vakillariga** kelishish, yoki eng kamida ularning fikrini o‘rganish uchun taqdim etiladi. Masalan, Norvegiya 2007-yilda namunaviy ikki tomonlama investitsiya bitimi loyihasini avval jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazib, keyin rasmiy qaror qabul qilingan [5, 59].

Uchinchidan, yangi ikki tomonlama investitsiya bitimlarini Model BITlar yordamida ishlab chiqish davlatga o‘z investitsiya siyosatini unifikatsiya qilish, turli ikki tomonlama investitsiya bitimlari o‘rtasida bir xillikni ta’minlashga yordam beradi [5, 3]. Model BIT ikkinchi tomonga muzokaralarga kirishishdan oldin davlatning investitsiya siyosatini baholashga, ushbu siyosat asoslangan fundamental tamoyillarni o‘rganishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, muzokaralar jarayonini osonlashtiradi va tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, Model BIT davlatga muzokaralarda qisman ustunlik taqdim etishi mumkin. Davlatda Model BIT mavjud bo‘lganda, muzokaralar aynan ushbu davlat afzal ko‘rgan nuqtalar yuzasidan boshlanadi va Model BITdan chetga chiquvchi masalalarni



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

alohida kelishib olishni taqozo etadi [4, 24]. Shu sababli, odatda, Model BITga ega davlat bilan muzokaralar jarayonida qabul qilingan ikki tomonlama investitsiya bitimi Model BITdan qisman farq qilsa-da, bitim butunlay yangidan yaratilmaydi. Tadqiqotlar, Model BITga ega davlatlar ikki tomonlama investitsiya bitimlarini ishlab chiqishda noaniq va mavhum nuqtadan muzokaralar boshlagan davlatlarga qaraganda ancha **katta samaraga** erishganini ko‘rsatmoqda [6, 22].

Beshinchidan, Model BIT davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama investitsiya bitimlarini talqin qilishga ta’sir ko‘rsatish vositasi sanaladi. Aksariyat ikki tomonlama investitsiya bitimlarida ularni talqin qilish masalalariga bag‘ishlangan qo‘shimcha hujjat qabul qilinmaydi. Shu sababli, tribunallar va tomonlar ikki tomonlama investitsiya bitimlarini talqin qilishda biror-bir muammoga duch kelganlarida ko‘pincha tomonlardan birining Model BITsiga murojaat qiladilar.

Xususan, ICSID arbitraj markazi tomonidan ko‘rib chiqilgan *Lion Mexico v. Mexico* ishida tribunal “Meksikaning maxsus investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi namunaviy bitimi”ga tayangan holda, da’vogarning ipoteka huquqlari NAFTA doirasida himoya qilinadigan investitsiyalar ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelgan [7, 239].

Bundan tashqari, keyinroq ishlab chiqilgan Model BITlar hamda ular asosida tuzilgan bitimlar bundan oldinroq imzolangan ikki tomonlama investitsiya bitimlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, *Cargill v. Mexico* ishida tribunal 1994-yildagi NAFTA shartnomasida belgilangan “**minimal muomala standartlarini**” (“minimum standard of treatment”) talqin qilishda AQSHning 2004-yildagi Model BITda belgilangan qoidalardan foydalangan [8, 275].

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari, Model BIT vaqt o‘tishi bilan mamlakatdagi siyosiy rejim va hukumat o‘zgarsa-da, turli ma’muriyatlar davrida huquqiy hamda



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

siyosiy uyg‘unlikni, ikki tomonlama investitsiya bitimlari o‘rtasida **izchillikni** ta‘minlashga xizmat qiladi. Xususan, dunyodagi eng yirik Model BIT dasturiga ega Amerika Qo‘shma Shtatlarining dasturining asosiy maqsadlaridan biri “yagona xalqaro huquqiy standartlarni rivojlantiruvchi izchil tartibga solish tizimini yaratish” hisoblanadi [9, 134].

Misol uchun, **o‘ng qarashlarga** ega hukumat davomida imzolangan BITlar, hukumatga **so‘l qarashlarga** ega partiyalar kelganidan so‘ng qabul qilingan BITlar bilan keskin farq qilishi mumkin. Bu esa investitsion siyosat barqarorligiga jiddiy putur yetkazadi va xorijiy investorlar uchun barqaror muhit kafolatlarini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Biroq, ushbu davlatda Model BIT mavjud bo‘lsa, hukumatlar almashinuviga qaramasdan ikki tomonlama investitsiya bitimlarining **garmonizatsiyasi** saqlanib qolishiga erishish mumkin.

O‘zbekiston ham shu kunga qadar dunyoning **59 ta** davlatlari bilan ikki tomonlama investitsiya bitimlarini imzolagan bo‘lib, shundan hozirda **50 tasi** amalda bo‘lib turibdi (6 tasi bekor qilingan, 3 tasi hali kuchga kirmagan) [10]. Biroq hali O‘zbekistonda muzokaralarda foydalanish uchun namunaviy ikki tomonlama bitim **qabul qilinmagan** va jamoatchilikka e‘lon qilinmagan.

O‘zbekiston hukumati ikki tomonlama investitsiya bitimlarini imzolashda yoki avval qabul qilingan BITlardan yoki ikkinchi davlat tomonidan ishlab chiqilgan Model BITdan foydalanib kelmoqda.

Fikrimizcha, mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tashkilotlarning ekspertlarini jalb qilgan holda O‘zbekiston hukumatining investitsiya siyosatiga mos tushuvchi Model BIT ishlab chiqish va UNCTAD kabi tashkilotlar orqali uni dunyo hamjamiyatiga e‘lon qilish zaruriyati allaqachon vujudga kelgan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

O‘zbekiston uchun Model BITning ishlab chiqilishi kelgusida qabul qilinadigan yangi ikki tomonlama investitsiya bitimlari o‘rtasida izchillikning kafolatlanishiga, muzokaralar jarayoni tezlashishi va potensial xarajatlarning kamayishiga yordam beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mark A. Clodfelter, The Adaptation of States to the Changing World of Investment Protection Through Model BITs, 24(1) ICSID REV.—FOR. INV.L.J. (2009).

2. Chester Brown, Introduction: The Development and Importance of the Model Bilateral Investment Treaty, in Model BIT Commentaries, (Chester Brown ed., 2013).

3. N. Jansen Calamita, The Making of Europe’s International Investment Policy: Uncertain First Steps, 39(3) Legal issues of economic integration (2012).

4. UNCTAD, Bilateral Investment Treaties In The Mid-1990S (1998).

5. Peter Muchlinski, Review of the Model Bilateral Investment Treaties of Norway, South Africa, and the United States, 2009-2010 Y.B. INT’L INV.LAW & POL’Y 41.

6. Tarald Laudal Berge & Oyvind Stiansen, Negotiating BITs with Models: The Power of Expertise, Pluri Courts Research Paper No. 16-13.

7. Lion Mexico Consolidated LP v. United Mexican States, ICSID Case No. ARB(AF)/15/2, Decision on Jurisdiction ¶ 239 (July 30, 2018).

8. Cargill, Inc. v. United Mexican States, ICSID Case No. ARB(AF)/05/2, Award ¶ (Sept. 18, 2009).

9. K. Scott Gudgeon, United States Bilateral Investment Treaties: Comments on Their Origin, Purposes, and General Treatment Standards, 4 INT’L TAX & BUS.L. 105.

10. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasining investitsiya siyosati bo‘yicha onlayn axborot bazasi [<https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements>].